

**XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHLARIDA FARG‘ONA OBLASTI
BOSHQARUVINING ME’YORIY-HUQUQIY ASOSLARI**

Raupova Mushtariybegim

Andijon davlat chet tillari institute o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinganidan so‘ng, Turkiston general-gubernatorligi va Farg‘ona oblasti boshqaruvining me‘yoriy-huquqiy asoslari bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar nuqtai-nazaridan tahlil etilgan. O‘lkada amalga oshirilgan jumladan, Farg‘ona oblastidagi boshqaruv ma‘muriyati imperiyaning boshqa o‘lkalari boshqaruvidan o‘zining keskin harbiylashgani bilan muhim ahamiyat kasb etgan. Shuni hisobga olgan holda o‘lka boshqaruvidagi me‘yoriy-huquqiy asoslari bo‘yicha umumiy ma‘lumotlar jamlangan.

Калит сўзлар: Turkiston oblasti, 1865-yil 6-avgustda “Muvaqqat Nizom”, 1886-yil 12-iyulda “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom”, Turkiston harbiy okrugi, general-gubernatorlik, maxsus kengash, volost boshqarmasi, uyezd boshlig‘i, general-gubernator mahkamasi, harbiy gubernator, Osiyo bo‘limi, Yangi Marg‘ilon, shahar dumasi.

REGULATORY AND LEGAL FOUNDATIONS OF THE
ADMINISTRATION OF FERGANA REGION AT THE END
OF THE 19TH - EARLY 20TH CENTUR

Raupova Mushtariybegim

Teacher of Andijan State Institute of Foreign Languages

Annotation: In this article, after the conquest of Turkestan by the Russian Empire in the late 19th and early 20th centuries, the reforms implemented in the regulatory framework of the administration of the Turkestan General-Governorship and Fergana Oblast are analyzed. implemented in the country, for example, the management administration in Fergana region gained special importance from the management of other countries of the empire due to its sharp militarization. taking this into account, general information on the regulatory and legal foundations of the country's administration has been compiled.

Key words: Turkestan Oblast, August 6, 1865 "Temporary Regulation", July 12, 1886 "Regulation on the Administration of Turkestan Territory", Turkestan Military District, Governor General, Special Council, Volost Administration, Head of Uyezd'i, Governor-General's Court, Military Governor, Asiatic Department, New Margilan, city дума.

XIX asrning 50-70 yillarida Chor Rossiyasi Qo‘qon, Xiva xonliklari va Buxoro amirligiga qarshi olib borgan bosqinchilik urushlari natijasida ushbu hududlar zabt etilib, o‘rniga chor mustamlakasi o‘rnatildi. Bu yerda milliy davlatchilik barham topib, uning o‘rnida mustamlakachilikka asoslangan Rossiya harbiy-ma‘muriy boshqaruv tizimi joriy etildi. Shunday qilib, o‘zbek va boshqa tub aholi asrlar osha davom etib kelayotgan o‘ziga xos milliy boshqaruv tizimidan zo‘ravonlik bilan mahrum etildi.

Turkiston ma‘muriyati imperiyaning boshqa o‘lkalari boshqaruvidan o‘zining keskin harbiylashgani bilan alohida ajralib turardi. Rossiya hukumatining Turkiston uchun 1865-1916 yillar davomida ishlab chiqqan va amalga tatbiq etgan o‘nta qonun loyihasi (1865, 1867, 1871, 1873, 1882, 1884, 1886, 1908, 1912, 1916)ga va uning moddalariga adliya, moliya, harbiy, ichki ishlar va boshqa vazirliklar kiritgan o‘zgartirishlarda o‘z aksini topgan edi. Dastlab Toshkent shahri bosib olinganidan keyin Sirdaryo hududi hamda 1864-1865 yillarda bosib olingan yerlar hisobiga, Orenburg general-gubernatoriga bo‘ysundirilgan Turkiston oblasti tashkil etildi. Turkiston oblastini boshqarish uchun 1865-yil 6-avgustda “Muvaqqat Nizom”i e‘lon qilindi. Uning asosiy maqsadi, ruslarning yangi bosib olingan yerlarda, boshqaruvning umumiy asoslarini belgilash orqali, tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlash bo‘lgan.

1867-yil 14-iyulda imperator Aleksandr II Turkiston harbiy okrugini ta‘sis etdi va O‘rta Osiyoda bosib olingan va saltanat tarkibiga kiritilgan hududlar hisobidan Turkiston general-gubernatorligini tashkil qilish to‘g‘risida farmon e‘lon qildi. General-gubernatorlik lavozimiga general K.P.Kaufman tayinlandi. U 1867-yil 7-noyabrda Toshkentda o‘z faoliyatini boshladi. O‘lkani boshqarishda general-gubernatorga cheklanmagan vakolatlar berildi.

General-gubernator idorasining qoshida maxsus kengash tuzilgan bo‘lib, uning tarkibida general-gubernator yordamchisi, harbiy va moliyaviy vazirliklarning har biridan bittadan vakil, Toshkent sud palatasining prokurori, mahalliy volost boshqarmasining rahbari va general-gubernator idorasining ish boshqaruvchisi kiritilgan.

Kengashda yer, soliq maorif va moliyaga tegishli masalalar bo‘yicha qarorlar chiqarilgan. General-gubernator u yoki bu qarorni tasdiqlash yoki bekor qilish huquqiga ega bo‘lgan.

Turkiston general-gubernatori o‘z qo‘lida harbiy va fuqaroviy hokimiyatni birlashtirgan. Makaziy boshqaruvda general-gubernator mahkamasining o‘rni katta bo‘lgan. Bosh boshqarmaning ijroiya organi bo‘lgan general-gubernator mahkamasi dastlab to‘rt bo‘limdan iborat bo‘lgan.

Birinchi bo‘lim: ma‘muriy va nazorat ishlarini boshqargan.

Ikkinchi bo‘lim: boshqarmning moliyaviy xo‘jalik ishlariga qaragan.

Uchinchi bo‘lim: soliqlar, shaharlar mablag‘lari va boshqaruvga doir nizomlar loyihalarini tayyorlash ishlari bilan shug‘ullangan.

To‘rtinchi bo‘lim: maxsus bo‘lim bo‘lib, 1886-yilga qadar g‘oyatda keng va mustaqil ravishda faoliyatda ish olib borgan. Bu bo‘lim harbiy va adlya vazirlik ko‘rsatmalariga xilof ravishda sud qarorlarini ham qayta ko‘rish bilan shug‘ullangan [1.B. 200-201].

Turkiston general-gubernatorligi XX-asr boshlariga kelib besh oblastga, Sirdaryo, Farg‘ona, Samarqand, Yettisuv, Kaspiyorti oblastlariga bo‘lindi. Ularni rus armiyasi generallaridan shaxsan podshohning o‘zi tayinlagan harbiy gubernatorlar boshqargan.

1876-yil 15-fevral kuni Kolpokovskiy Qo‘qon shahriga kirib keldi va butun Qo‘qon xonligi tugatilganligini e‘lon qildi.

1876-yil 19-fevral kuni harbiy vazir D.Milyutin Qo‘qon xonligi o‘rnida Farg‘ona oblasti tashkil etilganligi haqida habar berdi. Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiruvchi Farg‘ona oblasti tashkil etildi. General Skobelev Farg‘ona oblastining harbiy gubernatori etib tayinlandi. Farg‘ona oblasti asosan Qo‘qon xonligi yerlarini o‘z ichiga olib, Turkiston o‘lkasini 1/7 qismini tashkil etgan.

Mustamlakachilar mahalliy xalq urf-odatlarini, qadimgi an‘anaviy hududiy bo‘linmalarga e‘tibor qilmasdan, o‘zlari xohlagan oblast hududini uyezdlarga bo‘lib tashladi.

Farg‘ona oblastining tarkibi dastlab 6 ta Andijon, Namangan, Qo‘qon, Marg‘ilon, Chimyon va O‘sh uyezdlaridan iborat edi [2. B.12]. 1881-yilga kelib, Chimyon uyezdi hududi Qo‘qon va Marg‘ilon uyezdlariga bo‘lib tashlandi. Oblast uyezdlarga va volostlarga bo‘lingan edi. Farg‘ona oblastida jami 91 ta volost va 613 ta qishloq mavjud edi.

Farg‘ona oblastining 125470 kv.verst maydonida 1 mln. 572ming. 214 kishi yashagan. Jumladan Qo‘qon uyezdida 12 894 kv.verst maydonda 360 ming 267 kishi, Skobelev uyezdida 5089 kv.verst maydonda 321 860 kishi, Namangan uyezdida 26 978 kv.verst maydonda 763 789 kishi, O‘sh uyezdida 95 237 kv.verst maydonda 161 640 kishi yashagan. Oblast aholisi 674 485 kishi, bunda ruslar harbiy qo‘shin xizmatchilaridan tashqari 3 025 kishini tashkil qilgan.

Farg‘ona oblastida yashovchi 1 mln 572 ming 214 kishidan iborat aholining 1 mln 284 ming 856 tasi qishloq joylarda istiqomat qilgan. Shaharlarda esa 384 ming 612 kishi yashagan. Shu tariqa Aholining 80 foizdan ortig‘i qishloqlarda istiqomat qilgan. [3. B.107]

O‘troq aholi 122 805 kishi bo‘lgan oblastning ma‘muriy markazi Yangi Marg‘ilon shahri bo‘lgan.

1876-yilda Marg‘ilon shahrining yonida Yangi Marg‘ilon nomida rus shaharchasi tashkil topdi (1908-yildan esa u Skobelev nomi bilan ataladi). 1877-yilda harbiy vazir va Osiyo bo‘limi bosh kotibi Ichki ishlar vazirligiga bergan 148-ko‘rsatmasiga binoan Farg‘ona oblasti markazi rasmiy ravishda Qo‘qondan Yangi Marg‘ilonga ko‘chirildi. Shu munosabat bilan Farg‘ona oblastining harbiy general-

gubernatori Skobelov 1877-yil 12-mayda boshqaruvda faoliyat olib borayotgan barcha shtatlar uchun har yili 23800 so‘m sarflanishini hisobga olgan holda 1877-yil 1-iyunda Qo‘qonda alohida shahar boshqaruvi tugatilib, 1917-yilga qadar shahar boshqaruvi Uyezd boshlig‘i ixtiyoriga o‘tkazildi [4. B.48].

Aynan harbiy-gubernatorning idorasi ham Yangi Marg‘ilonda joylashgan. Uning aholisi asosan ruslar va boshqa millatga mansub bo‘lgan yevropaliklardan tashkil topgan.

Turkiston o‘lkasining eng obod hududlaridan bo‘lgan Farg‘ona oblasti turli-tuman boyliklari bilan shuhrat qozongan.

Farg‘ona oblasti harbiy gubernator va oblast boshqarmasi tomonidan boshqarilgan. Oblast harbiy gubernatori bir vaqtning o‘zida oblastda joylashgan harbiy qo‘shinga ham qo‘mondonlik qilgan. Farg‘ona oblasti boshqaruvi Turkiston general-gubernatorining vaqtinchalik Nizomda ko‘rsatilgan “zarur va mahalliy shart-sharoitlardan kelib chiqib ish ko‘rish” huquqidan foydalangan holda tashkil qilingan.

Farg‘ona oblasti 1886-yildagi Nizom e‘lon qilinguncha, K.P.Kaufman tomonidan tayyorlangan va hukumat tomonidan tasdiqlanmagan loyiha asosida boshqarilgan. Jumladan 1873-yilgi Nizom nafaqat qonuniy jihatdan tasdiqlanmagan, balki imperiya vazirliklari tomonidan oblast boshqaruvi uchun umuman qoniqarsiz deb topilgan edi. Oblast ma‘muriy-hududiy jihatdan uyezdlarga, uyezdlar bo‘limlarga, bo‘limlar esa uchastkalarga, volostlarga, oqsoqolliklarga va ovullarga bo‘linib boshqarilgan. Bu davrda mustamlaka boshqaruv tizimining quyi bo‘g‘inida mahalliy aholi vakillaridan saylanadigan oqsoqollar, volost boshliqlari, ovul boshliqlari, miroblar, qozilar va soliq yig‘uvchi sarkorlar ishtirok etganlar.

Farg‘ona oblasti yer resursi taqchil bo‘lgan hudud bo‘lishiga qaramasdan, Rossiya imperiyasi o‘zining to‘qimachilik sanoati uchun xomashyo bo‘lgan paxtani ko‘proq yetishtirish va paxta ekiladigan maydonlarni kengaytirishga harakat qilgan. Bu kengaytirishlar albatta, boshqa ekin maydonlarini, yaylovlarni qisqarishi hisobiga bo‘lgan.

Rossiya Davlat mulklari va ziroatchilik vaziri A.V.Krivosheyin markaziy masalani uch ko‘rinishda tasniflagan.

Birinchisi asosiy siyosat “Paxta” bo‘lsa, **ikkinchisi** “Sug‘orish” va nihoyat **uchinchisi** uncha ko‘zga ko‘rinib turmasada, muhim hisoblangani “Ruslarni ko‘chirib keltirib o‘rmashtirish” bo‘lgan.

Bu davrda mustamlakachilik manfaati va chet el kapitalining kirib kelishi natijasida sanoat va ishlab chiqarishning rivojlanishi aholining ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan.

Oblastda hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo, dehqonchilik va chorvachilik keng rivojlangan. O‘lkada yetishtirilgan paxtaning 60-70 foizi, ipakning 90 foizi Farg‘ona oblasti hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu oblast sanoat sohasida salmoqli o‘rinni egallagan. Shuningdek oblast neft va ko‘mir qazib olishda ham oldingi o‘rinni

egallagan. Turkiston o'lkasida shakllangan ishchilar sinfining salmoqli qismi ham shu yerda to'plangan edi. U yerda 1914-yilda zavodlarning soni 309 ta, Sirdaryo oblastida 183 ta va Samarqand oblastida 93 ta bo'lgan [3. B.170.].

Demak, Farg'ona oblasti Turkiston o'lkasining sanoat markazi, paxta va ipak makoni hisoblanib, mintaqada mavqeyi baland bo'lgan.

Oblastdagi mahalliy ma'muriyatni harbiy gubernator boshqargan. U bir vaqtning o'zida oblast hududida joylashtirilgan harbiy qo'shin miqdoridan kelib chiqib, harbiy korpus yoki diviziya qo'mondoni maqomiga ega bo'lgan. Oblast gubernatorlari harbiy vazir, ichki ishlar vaziri va Turkiston general-gubernatori bilan oldindan kelishilgan holda taqdimnomaga ko'ra podsho tomonidan tayinlar va bo'shatilar edi [5. B.18].

Oblast ma'muriy boshqaruv apparati; harbiy gubernator, yordamchisi, oblast mahkamasi boshlig'i maslahatchilari, mirshabboshi (polismeyster), oblast mahkamasi boshlig'i, tumanboshilar, uchastka (bo'lim) pristavlari, shahar hokimiyat boshliqlaridan iborat bo'lgan. Oblast boshqaruvi raisi vazifasini harbiy gubernator yordamchisi bajarardi. Oblast boshqaruvlari ma'muriy, sudlov, polisiya, moliya va xo'jalik yuritish funksiyalarini bajarardi [6. B.11-12-41].

Bundan tashqari, har bir oblast boshqaruvi qoshida bosmaxona va statistika komitetlari tashkil etilgan.

1876-yili Yangi Marg'ilon va Samarqandda shahar xo'jalik boshqarmalari saqlab qolinib, qolgan shaharlarda xo'jalik boshqaruv rus uyezd ma'muriyati nazoratiga olindi. Boshqarmalarda harbiy gubernator tomonidan tayinlangan rus harbiylari va mahalliy savdogarlar vakillari faoliyat ko'rsatgan [7. B.101].

Turkiston o'lkasi boshqaruvida faqat Toshkent shahri o'ziga xos tizimga ega bo'lgan [8. B.57-60]. Mana shu tizim 1895-yilda Farg'ona oblasti harbiy gubernatoriga shahar Dumasi, shahar boshqaruvi, uning boshlig'ining shu tartibda bo'lishi Yangi Marg'ilon va Qo'qon shahri uchun ham tavsiya qilinadi [9. B.1-2].

1876-yil 15-iyulda Qo'qon shahriga mustaqil boshqaruv huquqi berildi. Shahar boshqaruv organlarining tuzilishiga ko'ra shahar boshlig'i polkovnik Korolkov bo'lib, unga katta yordamchi etib shatb-kapitan V.L.Popadchiev, kichik yordamchi poruchik V.I.Zabusov, ish boshqaruvchi A.L.Frayberger va I.V.Molokov, tarjimon podporuchik N.G.Bogdanov tayinlangan [10.B.1-2]. Shu yilning dekabr oyida ikki kotibga yana uchta yordamchi shtati ajratildi.

Shundan so'ng uyezd boshqaruviga qo'shimcha 1800 rubl yillik maosh va 400 rubl boshqa xarajatlari bilan katta yordamchi shtati ajratildi. 1000 rubl maosh oladigan bitta kotib va 300 rubl maosh belgilangan yozma hamda og'zaki (400 rubl maosh bilan) tarjimon lavozimi ajratildi [11.B.11].

Shahardagi sud pristavi mansabi bekor qilinib, uning vazifasi ham uyezd ma'muriyatiga yuklandi [12.B.31].

Qo'qon uyezd boshqarmasi qoshida esa qo'shimcha politsiya boshqarmasi mansabi joriy qilindi. Natijada politsiya, sud va boshqa ma'muriy nazoratlar uyezd

boshlig'i ixtiyoriga o'tdi. Uyezd boshlig'i vazifasiga Farg'ona oblasti harbiy gubernatorining 1877-yil 28-maydagi ko'rsatmasiga ko'ra polkovnik Korolkov o'rniga mayor Botirov tayinlandi [13.B.8]. Unga katta yordamchi qilib shtab-kapitan Popadchikov, kichik yordamchi qilib Rogajnikov, kotiblikka esa maslahatchi Frayberger, unga yordamchi maslahatchi Molokov va tarjimonlikka Bogdanov hamda Nikolskiylar tayinlandi.

1886-yil 12-iyulda Rossiya podshosi "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom"ni ma'qulladi. Mazkur Nizom Turkiston o'lkasi va uning shaharlarini chinakam mustamlakaga aylantirish, rus sarmoyasi va yer egalariga uni talon-taroj qilishlariga yo'l ochib berish, har tamonlama ularni qo'llab-quvvatlash, yerli aholini mustamlakachilarga qarshi chiqishlariga hotima berishni nazarda tutgan edi. Bu Nizom ba'zi qo'shimchalar bilan 1917-yilga qadar davom etgan [14. B.62].

Shaharning siyosiy, xo'jalik va obodonchilik va boshqa boshqaruvlari ham uyezd boshlig'i nazoratida bo'lib, unga uchastka pristavlari va shaharning boy qatlamidan saylangan deputatlar yordam bergan [15. B.20].

Xulosa qilib aytganda, Turkiston o'lkasini Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida o'lkadagi boshqaruv tizimini to'liq o'z qo'llarida birlashtirdilar. Ular tomonidan o'lkaning boshqarilish jarayonida xalqning milliy o'zligi, qadriyatlari, diniga bo'lgan munosabatlari hisobga olinmadi. Bir tomondan o'lkaning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayoti to'liq markazga bo'ysundirilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan Turkiston general-gubernatorligida jumladan Farg'ona oblastida ruslashtirish siyosati jadallik bilan amalga oshirildi.

Адабиётлар:

1. Содиқов Х, Шамсутдинов Р, Равшанов П, Усмонов Қ. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-китоб. Туркiston Чор Россияси мустанлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ. 2000.
2. Шарафиддинов А. Фарғона вилояти тарихидан лавҳалар (XIX аср охири - XX аср бошлари). 1 китоб. Т.; "Наврўз", 2013.
3. Заорская В.В. и Александер К.А. Промышленные заведения Туркестанского края. Пг. 1915 г.,
4. Ўзбекистон тарихининг долзарб масалалари (XIX аср иккинчи ярми-XX аср охири). 1-умуммиллий илмий йиғини тўплами. – Тошкент: Фан.
5. ЎзМА, И 1-фонд, 27-рўйхат, 659 -иш, 18-варақ
6. Проект положения об управлении в Семиреченской и Сырдарьинской областях. СПб., 1867.
7. Ўз МА, 17-фонд, 16-рўйхат, 55 -йиғмажилд, 101 варақ; 3 рўйхат, 203-йиғмажилд, 26-варақ.
8. Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркistonда чор мустанлака тизими.
9. Ўз МА, 19-фонд, 1-рўйхат, 4612- йиғмажилд, 1-2-варақ.

10. Ўз МА, 19-фонд, 1-рўйхат, 93- йиғмажилд, 2-3-варақ; Туркистон вилоятининг газети, 1876 й, №11, 1-2 б.
11. Ўз МА, 1-фонд, 20-рўйхат, 10673-йиғмажилд, 11-варақ.
12. Акромов В.А. Қўқон шахрининг ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёти (XIX асрнинг II ярми ва XX асрнинг бошлари). Тошкент: Ўз ФА тарих институти, 1973.
13. Ўз МА, 1-фонд, 20-рўйхат, 10673-йиғмажилд, 8-варақ.
14. Абдурахимова Н.А., Рустамова Г. Колониальная система власти в Туркестане во второй половине XIX - I четверти XX века. Ташкент: Университет, 1999.
15. Вербовский В.П. Положение об управлении Туркестанского края. Ташкент, 1911.